



**“TASDIQLAYMAN”**  
**Qashqadaryo viloyat hokimligining**  
**“Yagona buyurtmachi xizmati”**  
**injiniring kompaniyasi direktori**  
**Tanlov komissiyasi raisi**

**A. Normo‘minov**

**2022 yil**

**2022 yil va kelgusi yillarda Qashqadaryo viloyati hududida markazlashtirilgan manbalar (davlatning kapital qo‘yilmalari), davlat boshqaruv organlari va davlat korxonalari mablag‘lari, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobiga qurilish-ta‘mirlash ishlari olib boriladigan bino hamda inshootlarning loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish bo‘yicha loyiha tashkilotlarini aniqlash uchun tanlov savdolarini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha**

**TANLOV KOMISSIYASINING ISH TARTIBI**  
**(REGLAMENTI)**

**I. UMUMIY QOIDALAR**

1.1. Tanlov komissiyasining ish tartibi O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi 684-sonli Qonuni talablari asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, tanlov komissiyasining tanlov savdolarini tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

1.2. Tanlov komissiyasi kollegial organ bo‘lib (doimiy yoki vaqtinchalik ishchi organ) tanlov savdolarining asosiy qatnashchisi hisoblanadi.

**II. Tanlov komissiyasining ish faoliyatini tashkil etish**

2.1. Tanlov komissiyasi quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:  
miqdori tanlov hujjatlarida qayd etiladigan aniq tanlov shartlariga bog‘liq bo‘ladigan tanlov savdolarida qatnashishga buyurtmanomalarni ta‘minlash shaklini ko‘rib chiqadi;

2.2. Tanlov o‘tkazishda xarid komissiyasi a‘zolarining kamida uchdan ikki qismi qatnashsa tanlov komissiyasi qabul qilgan qaror muvofiq deb hisoblanadi.

2.3. Takliflarni tanlovga e‘lon berilgandan eng kami 5 (besh) ish kunidan eng ko‘pi 12 (o‘n ikki) ish kunigacha bo‘lgan muddatdan so‘ng, komissiya a‘zolari ishtirokida ko‘rib chiqiladi.

2.4. Ofertani buyurtmachiga topshirishning oxirgi muddati e‘lon berilgan sanadan boshlab eng kami 5 (besh) ish kunidan eng ko‘pi 12 (o‘n ikki) ish kunigacha.

2.5. Tanlov komissiyasi tanlov hujjatlarida ko‘rsatilgan mezonlarga muvofiq ofertalarni o‘rganadi, tekshiradi va ko‘rib chiqadi, tanlov savdolari g‘olibini aniqlaydi va bayonnoma rasmiylashtiradi.

2.6. Xarid komissiyasining qarori bilan tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida va taklifda ko‘rsatilgan mezonlarga muvofiq g‘olibning taklifidan keyingi eng maqbul taklifni taqdim etgan ishtirokchi sifatida e‘tirof etilgan zahiradagi g‘olib aniqlanishi mumkin.

2.7. Tanlov savdolarini o‘tkazish jarayonida paydo bo‘ladigan nizolar va kelishmovchiliklarni ko‘rib chiqadi va tartibga soladi hamda ular bo‘yicha tegishli xulosalar chiqaradi.

2.8. Tanlov komissiyasining har bir a‘zosi tomonidan takliflar bo‘yicha ovoz berish natijalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar qat‘iy ravishda maxfiy va oshkor etilishi shart emas.

2.9. Tanlovni o‘tkazish tartib-qoidalari bosqichlari bo‘yicha qaror tanlov takliflarini ko‘rib chiqilgandan keyin tanlov komissiyasi tomonidan ko‘pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo‘lgan taqdirda raisning ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

2.10. Paketlarni komissiya vakillari tomonidan o‘rganish va baholash “O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi 684-sonli Qonuniga asosan davlat xaridlarini o‘tkazish bo‘yicha maxsus elektron portalida o‘tkaziladi.

### **III. Tanlov hujjatlari hamda malaka talablariga qo'yiladigan shartlar va talablar**

- 3.1. Tanlov hujjatlari lotin alifbosiga asoslangan o'zbek tilida tayyorlanishi talab etiladi.
- 3.2. Umumiy tanlov hujjatlari deklaratsiya va 7 ta shakl hamda 3 ta ilovani tashkil etadi. *(ilova qilinadi)*
- 3.3. Tanlov hujjatlari uni o'rganishda va tanlov taklifini tayyorlashda har tomonlama tushunarli holda tayyorlangan bo'lishi kerak.
- 3.4. Loyihachilarni konsorsium va boshqa ko'rinishdagi birlashmalarini tanlov savdolarida ishtirok etishlariga yo'l qo'yilmaydi.
- 3.5. Tanlov hujjatlari o'zbek tilida tayyorlanadi.
- 3.6. Shartnoma lotin alifbosiga asoslangan o'zbek tilida tayyorlanadi.
- 3.7. Takliflarni tanlovga e'lon berilgandan eng kam 5 (besh) ish kunidan eng ko'pi 12 (o'n ikki) ish kunigacha bo'lgan muddatdan so'ng komissiya a'zolari ishtirokida ko'rib chiqiladi.
- 3.8. Tanlov ishtirokchilari loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish faoliyati bilan shug'ullanishga tegishli litsenziyaga ega bo'lgan loyihalash tashkiloti va loyiha instituti bo'lishi lozim.
- 3.9. Tanlov ishtirokchisi tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun tegishli litsenziyalar nusxalari (shu jumladan yordamchi loyihalash tashkilotlariniki)ni taqdim etishi shart.
- 3.10. Tanlov hujjatlar (texnik qism, tashkil etilayotgan narx va loyihalash ishlarini bajarish muddati) muxrlangan nusxalari elektron ravishda qabul qilinadi.
- 3.11. Baholashning asosiy mezonlari texnik qism va loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish narxi bo'ladi.
- 3.12. Tanlov hujjatlari asosida tuzilgan shartnomaning shartlari O'zbekiston Respublikasi hududida amal qiladigan Fuqarolik kodeksining umumiy tamoyillariga, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar shartnomaviy huquqiy asoslari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va me'yoriy hujjatlariga muvofiq bo'lishi kerak.
- 3.13. Tanlov ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan hujjatlar, qo'yilgan talablarga javob berishi kerak.
- 3.14. Tanlovda, qayta tashkil etilayotgan yoki bankrotlik xolatidagi loyiha tashkilotlarining ishtirok etishi mumkin emas.

### **IV. Tanlov taklifiga kiritilgan hujjatlar**

- 4.1. Tanlov taklifini ta'minlash to'g'risidagi Deklaratsiya.
- 4.2. Loyihachi tashkilotning tashkiliy strukturasi. (1-shakl)
- 4.3. Loyihachi tashkilot haqida umumiy ma'lumotlar. (2 – shakl)
- 4.4. Tanlov ishtirokchisining oxirgi 3 (uch) yillik moliyaviy ko'rsatgichlari, salohiyati to'lovga qodirligi va aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganligi to'g'risida ma'lumot. (3-shakl)
- 4.5. Tanlov ishtirokchisining loyihalash ishlari bo'yicha bajargan ish tajribasi (4 – shakl)
- 4.6. Loyihalash (Qurilish) maydonini ko'rganlik va loyihani o'rganganlik to'g'risida ma'lumotnoma. (5-shakl)
- 4.7. Mavjud orgtexnika (kompyuter, printer, loyihalash dasturlari, mavjud mashina va mexanizmlar) va boshqalar ro'yhati. (6-shakl)
- 4.8. Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish jarayonida yordamchi loyiha tashkilotni jalb qilish to'g'risida ma'lumot (7-shakl)
- 4.9. Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha taklif summasi va bajarish muddati (1-ilova)
- 4.10. Loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash ishlarini umumiy jadvali (2 va 3-ilovalar)

### **V. Taklifni muhrlash va taqdim etish**

- 5.1. Hujjatlar imzolangan va muhrlangan asl nusxalari elektron ravishda davlat xaridlarini o'tkazish bo'yicha maxsus elektron portaliga joylashtiriladi.
- 5.2. Takliflar va hujjatlar talab qilingan holatda bo'lmasa buyurtmachi tomonidan hujjatlar qabul qilinmaydi va ko'rib chiqilmaydi.



## VI. Komissiya ishini boshlash, tanlov takliflarini ochish va baholash

- 6.1. Tanlov davlat xaridlarini o'tkazish bo'yicha maxsus elektron portalida o'tkaziladi;
- 6.2. Ishtirokchilar takliflari davlat xaridlarini o'tkazish bo'yicha maxsus elektron portalida ko'rib chiqiladi.
- 6.3. Tanlov komissiyasi ishtirokchilarni taqdim etgan hujjatlarini va takliflarini ko'rib chiqadi, ularni to'g'ri to'ldirilganligi, hujjatlarni elektron asl nusxalari haqiqiyliigi, to'g'ri imzolanganligi va umumiy xolat bo'yicha takliflarini ko'rib chiqadi.
- 6.4. Tanlovga kiritilmagan yoki diskvalifikatsiya qilingan taklif ishtirokchilarini bayonnomada sababini ko'rsatgan holda tanlovdan chetlashtiriladi.
- 6.5. Tanlov komissiyasining ovozga qo'yish natijalari haqidagi ma'lumotlar maxfiy hisoblanadi va oshkor etilishiga yo'l qo'yilmaydi.
- 6.6. Har bir ofertaning keyingi bosqichlarga o'tishi ko'pchilik ovoz bilan hal qilinadi, agar ovozlar teng bo'lsa komissiya raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

## VII. Tanlov ishtirokchilarini baholash

- 7.1. Tanlov g'olibini aniqlashda tanlov ishtirokchisi tomonidan to'ldirilgan va taqdim etilgan shakllar o'rganib chiqiladi.
- 7.2. Tanlov komissiyasi a'zolari davlat xaridlarini o'tkazish bo'yicha maxsus elektron portalida o'z shaxsiy kabineti orqali baholaydi va tasdiqlaydi. (O'zining shaxsiy ERI kaliti bilan) (namuna 1-jadvalda keltirilgan.)
- 7.3. Zarur bo'lgan hollarda tanlov komissiyasi komissiya tarkibidan, kompaniya bo'limlaridan yoki tegishli boshqa malakali mutaxassislardan jalb qilgan holda hujjatlarni to'liq o'rganib chiqish va xulosa kiritish uchun baholash guruhi tuzishga haqlidir.

1-jadval

\_\_\_\_\_ ob'ektlarning loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun tanlov takliflarini texnik baholash varag'i

T/r	Shakllarni baholash parametrining nomi.	Shakl №	Ballar miqdori	Oferentlar			
				№1	№2	№3	№4
1.	Deklaratsiya						
2.	Loyihachi tashkilotning tashkiliy strukturasi	1-shakl	0-5				
3.	Loyihachi tashkilot haqida umumiy ma'lumotlar.	2-shakl	6-30				
4.	Tanlov ishtirokchisining oxirgi 3 (uch) yillik moliyaviy ko'rsatgichlari, to'lovga qodirligi va aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganligi to'g'risida ma'lumot	3-shakl	9-20				
5.	Tanlov ishtirokchisining loyihalash ishlari bo'yicha bajargan ish tajribasi	4-shakl	10-20				
6.	Loyihalash (Qurilish) maydonini ko'rganlik va loyihani o'rganganlik to'g'risida ma'lumotnoma.	5-shakl	0-5				
7.	Mavjud orgtexnika (kompyuter, printer, loyihalash dasturlari ) va boshqalar ro'yhati	6-shakl	5-15				
8.	Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish jarayonida yordamchi loyiha tashkilotni jalb qilish to'g'risida ma'lumot	7-shakl	0-5				

## VIII. Tanlov takliflarini baholash me'zonlari

8.1. Tanlov xujjatida har bir parametr bo'yicha majburiy tartibda baholash me'zonlari kiritilishi kerak.



## 8.2. Baholash me'zonlari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Qashqadaryo viloyat hokimligining "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi buyurtmachiligida ob'ektlarning loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishda ob'ektlar bo'yicha tanlash takliflarini texnik

**BAHOLASH MEZONLARI**

T/r	Shakllarni baholash parametrining nomi.	Ballar miqdori
<b>I. Deklaratsiya</b>		
1.	Tanlovda ishtirok etish buyurtmasida deklaratsiya bo'lmaganda taklif ko'rib chiqilmaydi va hujjatlarning 2 - yig'ma jildi ochilmasdan oferentga qaytariladi.	
<b>I. Deklaratsiya II. Loyihachi tashkilotning tashkiliy strukturasi - 1 shakl (0-5 ball)</b>		
1.	Tanlovda ishtirok etish buyurtmasida deklaratsiya bo'lmaganda taklif ko'rib chiqilmaydi va hujjatlarning 2 - yig'ma jildi ochilmasdan oferentga qaytariladi. Tashkiliy struktura	0-5
<b>III. Loyihachi tashkilot haqida umumiy ma'lumotlar. 2 - shakl (6-30 ball)</b>		
1.	Ish staji 5 yildan kam bo'lmagan oliy ma'lumotli loyihalash mutaxassisligiga ega bo'lgan rahbarlardan 1 kishi mavjudligi. <i>(tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi)</i>	0-3
2.	Diplomli 5 yil ish stajiga ega 2 kishidan iborat injener-texnik hodimlarni mavjudligi. (GIP, GAP ) <i>(tasdiqlovchi hujjatlar: pasport, diplom va mehnat daftarchasi nusxalari ilova qilinadi)</i>	1-5
3.	Doimiy ravishda ishlovchi 10 ta malakaviy loyihachi mutaxassislar mavjudligi. <i>(tasdiqlovchi hujjatlar: pasport, diplom va mehnat daftarchasi nusxalari ilova qilinadi)</i>	2-12
4.	Doimiy ravishda ishlovchi 10 yillik ish stajiga ega 4 malakaviy loyihachi mutaxassislar mavjudligi.	3-10
<b>IV. Tanlov ishtirokchisining oxirgi 3 (uch) yillik moliyaviy ko'rsatgichlari, to'lovga qodirligi va aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganligi to'g'risida ma'lumot 3-shakl. (9-20 ball)*</b>		
1.	Ishlab chiqarish fondining qiymati 100 mln.so'mgacha va undan ko'p	3-5
2.	Muddati o'tgan kreditorlik qarzdorligi mavjud emasligi (balans va moliyaviy natijalardan nusxa hamda byudjet va byudjetdan tashqari soliq, bank qarzdorligi bo'yicha ma'lumotnomalarning asl nusxasi).	0-5
3.	O'tgan yilda 20 mln.so'm foydasi (soliq to'langunga qadar) mavjudligi	3-5
4.	To'lovga qodirlik ko'rsatkichi ijobiyligi	3-5
<b>V. Tanlov ishtirokchisining loyihalash ishlari bo'yicha bajargan ish tajribasi 4 - shakl (10-20 ball)</b>		
1.	Tanlovda qo'yilgan ob'ektga o'xshash bo'lgan ob'ektlarni LSHini bajarilganligi bo'yicha ma'lumot.	5-10
2.	Bir yilda 10 tadan kam bo'lmagan ob'ektlarning LSHni tayyorlaganlik	2-5
3.	Ijtimoiy soha va shunga o'xshash ob'ektlarini LSHini bajarilishi	3-5
<b>VI. Loyihalash (Qurilish) maydonini ko'rganlik va loyihani o'rganganlik to'g'risida ma'lumotnoma 5 - shakl. (0-5 ball)</b>		
1.	Qurilish maydonini ko'rganligi va o'rganib chiqilganligi	0-2
2.	Muhandislik kommunikatsiyalarini o'rganib chiqqanligi	0-3
<b>VII. Mavjud orgtexnika (kompyuter, printer, loyihalash dasturlari ) va boshqalar ro'yhati, 6 - shakl (5-15 ball)**</b>		
1.	Loyihani bajarish uchun zarur bo'lgan 5 ta dan kam bo'lmagan oxirgi 10 yillikda ishlab chiqarilgan kompyuterlar mavjudligi** <i>(ijara shartnoma asosidagi loyiha texnikalarining ballari 50% kamaytiriladi)</i>	2-4
2.	Loyihani bajarish uchun zarur bo'lgan orgtexnika vositalarini <i>(printerlar , plotterlar, kserokopiya va skanerlar )</i> mavjudligi**	2-4
3.	Loyihalash programmalari: - "Auto Cad"-2007-2020 - "Corel Draw X3-2005" - "3D MAX" - "Lira 9.4" - Smeta programmalari	0-3
4.	Mavjud xizmat mashinalari	1-4
<b>VIII. Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish jarayonida yordamchi loyiha tashkilotni jalb qilish to'g'risida ma'lumot - 7 -shakl</b>		
		0-5

**Izohlar:**

\* 3-shaklga keyingi 3 (uch) yillik "Moliyaviy natijalar №1 va №2" ilova qilinadi.

\*\* Tanlov takliflarini baholashda yordamchi loyihachi tashkilotlardan jalb etilgan mashina va mexanizmlar hisobga olinmaydi.

Tanlov ishtirokchisi yangi qurilish va rekonstruktsiya qilish ob'ektlarining loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha baholash yakunlariga ko'ra 70 balldan kam ball to'plasa, mukammal ta'mirlash ob'ektlari bo'yicha baholash yakunlariga ko'ra 60 balldan kam ball to'plasa, joriy ta'mirlash ob'ektlari bo'yicha baholash yakunlariga ko'ra 50 balldan kam ball to'plasa taklif rad etiladi.

Taklif quyidagi hollarda ko'rib chiqilmaydi:

- agar taklif tanlov komissiyasining ball berish natijalariga ko'ra texnik malakasi yetarli emas deb topilsa;

- 2, 3, 4 va 6 shakllardan birortasi mavjud bo'lmasa yoki belgilangan tartibda rasmiylashtirilmagan bo'lsa, ularni bahosi 0 ga tenglashtiriladi va qolgan hujjatlar ko'rib chiqilmaydi.

Ishtirokchilarning takliflari quyida ko'rsatilgan tanlov takliflarining moliyaviy hisoblash mezonlariga binoan baholanadi:

### IX. Tanlov takliflarini moliyaviy qismini baholash mezonlari

T/r	Ilovalarni baholash parametrining nomi.	Ballar miqdori	Oferentlar			
			№1	№2	№3	№4
<b>I. Taklif etilayotgan narx (30 ball)</b>						
1.	Ishtirokchining taklif etgan eng past narxi – 30 ball Ishtirokchining buyurtmachi boshlang'ich narxidan yuqori narxlari rad etiladi. Narxga beriladigan ballar davlat xaridlarini o'tkazish bo'yicha maxsus elektron portalida avtomatik tarzda baholanadi.	30				
<b>I. Birinchi yig'ma jildni baxolashdagi ballar miqdori Tanlov takliflarining baxolash varag'i (70 ball)</b>						
1.	Tanlov takliflarini texnik baholash yakuniga ko'ra ko'p ball to'plagan ishtirokchiga – 70 ball.	70				

9.1. Agar baholash mezonida boshqa ma'lumotlar keltirilgan bo'lsa, o'rganish natijalariga ko'ra baholash guruhi a'zolari tanlov takliflarining quyidagi baholash yakuniy jadvalini to'ldirishadi:





T/r	Ilovalarni baholash parametrining nomi.	Ballar miqdori	Oferentlar			
			№1	№2	№3	№4
<b>I. Taklif etilayotgan narx (30 ball)</b>						
1.	Taklif etilayotgan narx (narx preferentsiyalarini hisobga olgan holda).	30				
2.	Tanlov takliflarini baholash varag'i (texnik baholash).	70				
	Jami ballar miqdori	100				



9.2. Tanlov bo'yicha eng ko'p ball to'plagan ishtirokchi tanlov g'olibi hisoblanadi.

9.3. Tanlov g'olibiga to'lovlar tuzilgan shartnoma asosan O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi (so'm)da to'lab beriladi.

**Komissiya a'zolari:**

 _____	<b>V.Boymirzayev</b>	 _____	<b>M.Nabiyeva</b>
 _____	<b>D.Abdullayev</b>	 _____	<b>T.To'rayev</b>

**TANLOV ISHTIROKCHILARI UCHUN  
KO'RSATMALAR**

**Tanlov taklifini ta'minlash to'g'risida  
D E K L A R A T S I Y A**

(Loyiha tashkiloti nomi)

\_\_\_\_\_ uchun loyiha-  
(Лойихаси тайёрланадиган объект номи)

smeta hujjatlarini tayyorlash bo'yicha

**Kimga: Qashqadaryo viloyat hokimligining "Yagona buyurtmachi xizmati"  
injiniring kompaniyasiga**

Biz quyida imzo chekuvchilar, shuni bildiramizki:

Kontrakt shartnomalariga muvofiq, tanlov taklifimiz ushbu taklifni ta'minlash to'g'risidagi Deklaratsiya bilan qo'llab-quvvatlanadi.

Agar tanlov shartlari bo'yicha majburiyatlarimiz quyidagilar oqibatida biz tomonidan buzilganda, Qashqadaryo viloyat hokimligining "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi bilan Investitsiya dasturlari va mahalliy byudjet mablag'lari bo'yicha tuziladigan har qanday shartnoma uchun tanlov taklifini taqdim etish huquqini Buyurtmachining bildirishnomasi olingan paytdan boshlab 3 yillik davrga yo'qotishimizni qabul qilamiz:

- Tanlov taklifnomasida ko'rsatilgan tanlov amal qilish davrida bizning taklifimizni qaytarib chiqarib olsak;
- tanlovni amal qilish davrida bizning taklifimiz qabul qilinganligi to'g'risida buyurtmachidan bildirishnoma olganimizdan so'ng, shartnomani bajarish talab etilganda shartnomani bajarmasak yoki bajarishdan bosh tortsak, shartnomani bajarish kafolatnomasini taqdim qilmasak yoki taqdim qilishdan bosh tortsak.

Tanlashda bizning taklifimiz g'olib deb topilmagan taqdirda, mazkur deklaratsiya o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanadi.

\_\_\_\_\_  
(Tashkilot nomi)

\_\_\_\_\_  
(imzo)

\_\_\_\_\_  
(familiya va ismi)

M.O'

2022 yil " \_\_\_\_\_ " \_\_\_\_\_



Loyihachi tashkilot \_\_\_\_\_ning tashkiliy strukturasi

\_\_\_\_\_  
(Tashkilot nomi)

\_\_\_\_\_  
(imzo)

\_\_\_\_\_  
(familiya va ismi)

M.O‘

Ushbuni tuzilgan sana: “ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2022 yil

### Tanlov ishtirokchisi to'g'risidagi umumiy axborot

Tanlov ishtirokchisining nomi \_\_\_\_\_  
 Rahbarining familiyasi, ismi, \_\_\_\_\_  
 va otasining ismi \_\_\_\_\_  
 Manzil va telefon (faks) raqami \_\_\_\_\_  
 Yuridik maqomi \_\_\_\_\_  
 Tashkil etilganligi sanasi (buyruq yoki qaror kim tomondan berilgan) \_\_\_\_\_  
 Faoliyati turi bo'yicha ixtisoslashuvi \_\_\_\_\_

Rahbar va uning o'rinbosarlari:

T/r	F.I.SH.	Ma'lumoti (Ta'lim muassasi nomi va mutaxassisligi)	Ish tajribasi (yil)	Egallab turgan lavozimi	Umumiy ish tajribasi
1	2	3	4	5	6

Asosiy hodimlar (GIP, GAP va boshqalar)

T/r	F.I.SH.	Ma'lumoti (Ta'lim muassasi nomi va mutaxassisligi)	Ish tajribasi (yil)	Egallab turgan lavozimi	Umumiy ish tajribasi
1	2	3	4	5	6

Doimiy hodimlari (ishchilar)

T/r	Mutaxassisliklar nomi	Mutaxassisligi bo'yicha jami hodimlar soni	Shundan mutaxassisligini tasdiqlovchi hujjatga ega bo'lganlar	Shundan LSH tayyorlash sohasida 10 yildan kam bo'lmagan ish tajribasiga ega bo'lganlar
1	2	3	4	5
	Jami:			
	Shundan			
	GIPlar			
	GAPlar			
	Loyihachilar			
	Smetchiklar			
	va boshqalar			

Bu yerdagi ma'lumotlar asli va to'g'ri bo'lib, bu yerdagi har qanday noto'g'rilik yoki yolg'on ma'lumotlar uchun fuqarolik va jinoiy nuqtai nazardan javobgarmiz.

Tanlov ishtirokchisi rahbarini imzosi: \_\_\_\_\_  
 (imzo) (F.I.SH.)

M.O'

Ushbuni tuzilgan sana: " \_\_\_\_ " \_\_\_\_\_ 2022 yil

Shakllarning barcha sahifalari topshirilayotganda tanlov ishtirokchisi tomonidan imzolangan va muhrlangan bo'lishi kerak.



**Tanlov ishtirokchisining moliyaviy holati.**  
oxirgi 3 yildagi moliyaviy hisobotlari asosida

Tanlov ishtirokchisining nomi \_\_\_\_\_

(ming.so'mda)

AKTIVLAR	20 y.	20 y.	20 y.	PASSIVLAR	20 y.	20 y.	20 y.
Uzoq muddatli aktivlar				Uzlik mablag'larning manbalari			
Asosiy vositalar				Ustav fondi			
Shu jumladan ishlab chiqarish zahiralari				Taqsimlanmagan foyda			
QOLDIQ qiymat				<b>Majburiyatlar</b>			
Kapital quyilmalar				Zayomlar			
Tugallanmagan ishlab chiqarish				Kreditor qarzlari			
<b>Joriy aktivlar</b>				Shundan to'lov muddati o'tgan qarzlari			
Aylanma mablag'lar				Shundan byudjet bo'yicha qarzlari			
Ulardan ishlab chiqarish zahiralari				Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzlari			
Debitor qarzlari							
Shu jumladan to'lov muddati o'tgan qarzlari							
Jami balans aktiv bo'yicha				Jami balans passiv bo'yicha			

**MOLIYAVIY NATIJALAR**

(ming.so'mda)

NOMI	20 y.	20 y.	20 y.	NOMI	20 y.	20 y.	20 y.
1. Maxsulot (ish, xizmat) sotishdan tushgan tushum				8. Sof foyda			
2. Maxsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan sof foyda				Shundan asosiy faoliyatdan foyda			
3. Sotilgan maxsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish tannarxi				Umumxo'jalik faoliyatidan			
4. Administrativ harajatlar				9. Asosiy faoliyatning foydasi			
5. Boshqa harajatlar				10. Umumxo'jalik faoliyatining foydasi			
6. Daromad solig'i to'langunga qadar foyda				11. Zarar			
7. Daromad soliq				Shu jumladan: asosiy faoliyatdan			
				Umumiy xo'jalik faoliyatidan			

Balans foydasi \_\_\_\_\_

Bu yerdagi ma'lumotlar asli va to'g'ri bo'lib, bu yerdagi har qanday noto'g'rilik yoki yolg'on ma'lumotlar uchun fuqarolik va jinoiy nuqtai nazardan javobgarmiz.

Rahbar \_\_\_\_\_  
(imzo)

Bosh hisobchi \_\_\_\_\_  
(imzo)

M.O'.

Ushbuni tuzilgan sana: " \_\_\_\_\_ " \_\_\_\_\_ 2022 yil

**Ushbu shaklga "Moliyaviy natijalar №1 va №2" ilova qilinadi.**

Shakllarning barcha sahifalari topshirilayotganda tanlov ishtirokchisi tomonidan imzolangan va muhrlangan bo'lishi kerak.

### Tanlov ishtirokchisining bajargan ish tajribasi

Tanlov ishtirokchisining nomi: \_\_\_\_\_

Axborotingizda soʻralgan yillar davomida oʻzingiz ishtirok etgan barcha obʻektlarini sanab oʻtishingizni soʻraymiz

№	Obʻektning nomi va joylashuv manzili	Buyurtmachining nomi	Tuzilgan pudrat shartnomaning narxi	Qatnashish shakli (bosh pudratchi yoki yordamchi pudratchi)	Qatnashish ulushi (bajarilgan ish hajmini foizlar hisobida koʻrsating)
20__ yil					
1.					
2.					
20__ yil					
1.					
2.					
20__ yil					
1.					
2.					

Bu yerdagi maʼlumotlar asli va toʻgʻri boʻlib, bu yerdagi xar qanday notoʻgʻrilik yoki yolgʻon maʼlumotlar uchun fuqarolik va jinoiy nuqtai nazardan javobgarmiz.

Tanlov ishtirokchisi rahbarini imzosi:

M.Oʻ

(imzo)

(F.I.SH.)

Ushbuni tuzilgan sana: “ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2022 yil

Shakllarning barcha sahifalari topshirilayotganda tanlov ishtirokchisi tomonidan imzolangan va muhrlangan boʻlishi kerak.



**LOYIHALASH (QURILISH) MAYDONCHASINI  
KO'ZDAN KECHIRGANLIGI TO'G'RISIDA MA'LUMOTNOMA**

Ushbu bilan tasdiqlanadi-ki, men \_\_\_\_\_si boshlig'i  
\_\_\_\_\_ **Qashqadaryo viloyati** \_\_\_\_\_ **ob'ektini**  
**loyiha-smeta hujjatlarini bajarish bo'yicha ajratilgan** qurilish maydonchasi va unga tutash  
hududlarda bo'ldim, shuningdek:

- a) hududni batafsil o'rgandim;
- b) loyihalash hujjatlarini o'rgandim.

Mazkur shartnomani sifatli, to'la va o'z vaqtida bajarilishiga, kelgusidagi ishlarning qiymatiga, loyihalash ishlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan turli sharoitlar va boshqa holatlar hamda qurilish maydoni bilan tanishdim. Ushbu holatlarning barchasi o'z taklifimizda hisobga olingan.

Bu yerdagi ma'lumotlar asli va to'g'ri bo'lib, bu yerdagi har qanday noto'g'rilik yoki yolg'on ma'lumotlar uchun fuqarolik va jinoiy nuqtai nazardan javobgarmiz.

Tanlov ishtirokchisi rahbarini imzosi:

M.O'

\_\_\_\_\_  
(imzo)

\_\_\_\_\_  
(F.I.SH.)

Ushbuni tuzilgan sana: " \_\_\_\_ " \_\_\_\_\_ 2022 yil

Shakllarning barcha sahifalari topshirilayotganda tanlov ishtirokchisi tomonidan imzolangan va muhrlangan bo'lishi kerak.





**LOYIHA-SMETA HUJJATLARINI ISHLAB CHIQISH JARAYONIDA YORDAMCHI  
LOYIHA TASHKILOTNI JALB QILISH TO‘G‘RISIDA  
MA’LUMOT**

Tanlov ishtirokchisi rahbarini imzosi:

M.O‘

\_\_\_\_\_ (imzo)

\_\_\_\_\_ (F.I.SH.)

Ushbuni tuzilgan sana: “ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2022 yil

Shakllarning barcha sahifalari topshirilayotganda tanlov ishtirokchisi tomonidan imzolangan va muhrlangan bo‘lishi kerak.

**Tanlov hujjatlarining birinchi paketiga quyidagilar ham ilova qilinadi.**

- Loyihalash ishlarini bajarish bo'yicha Qurilish vazirligi tomonidan berilgan litsenziya nusxasi ilova qilinadi. (asliga to'g'riligini tashkilotni muxr bilan tasdiqlangan holda)
- Yuridik shaxsni Davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi guvoxnoma nusxasi ilova qilinadi. (asliga to'g'riligini tashkilotni muxr bilan tasdiqlangan holda)
- Loyiha tashkilotining nizomi nusxasi ilova qilinadi (asliga to'g'riligini tashkilotni muxr bilan tasdiqlangan holda)

Qashqadaryo viloyati hokimligi “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyasi  
(Buyurtmachining nomi)

**LOYIHA-SMETA HUJJATLARINI TAYYORLASH UCHUN BUYURTMA**

(ob'ektning nomi, joylashgan o'rni, quvvati va ish turi)

1. Biz quyida imzo qo'yuvchilar yuqorida ko'rsatilgan ob'ekt bo'yicha bajarilishi lozim bo'lgan ishlarni o'rgangan holda, ob'ektning loyiha-smeta hujjatlarini \_\_\_\_\_ *raqam bilan* \_\_\_\_\_ (*so'z bilan* \_\_\_\_\_) Qo'shimcha qiymat solig'i bilan so'mga bajarib berish majburiyatini o'z zimmamizga olamiz.
2. Agarda bizning taklifimiz qabul qilingan taqdirda, LSH tayyorlash ishlarini \_\_\_\_\_ **kun** davomida yakunlash majburiyatini olamiz.
3. Buyurtmachi unga taklif etilgan eng kam narx taklifini qabul qilishga majbur emasligini izhor qilamiz.

Tanlov ishtirokchisi rahbarini imzosi:

M.O'

\_\_\_\_\_ (imzo)

\_\_\_\_\_ (F.I.SH.)

Ushbuni tuzilgan sana: “ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2022 yil





### Ilova № 3

#### Loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash ishlarini umumiy jadvali

Ilova qilinayotgan umumiy jadvalda ko'zda tutilayotgan ishlar dasturi va ularni bajarish muddatlarini anglatadi.

T.r	Ishlar turi	Hisob-kitob formulasi	Joriy narxdagi qiymati (so'm)
1	2	3	4

Loyiha-smeta hujjatlarini bajarish uchun taklif summasi \_\_\_\_\_ so'm qabul qilindi

Tanlov ishtirokchisi rahbarini imzosi:

M.O'

(imzo)

(F.I.SH.)

Ushbuni tuzilgan sana: "\_\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ 2022 yil

Shakllarning saxifalari topshirilayotganda tanlov ishtirokchisi tomonidan imzolangan va muxrlangan bo'lishi kerak.